


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6951,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 110,5 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-avgust oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1248,2 mlrd. so'mga oshdi.




**2019 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mldr. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Xizmatlar - jami	6951,7	110,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	418,2	110,7
moliyaviy xizmatlar	995,9	167,2
transport xizmatlari	1482,6	102,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1376,5	101,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	175,6	100,5
savdo xizmatlari	2248,2	104,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	222,1	104,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	224,6	103,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	141,4	105,1
ijara xizmatlari	198,2	103,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	213,1	102,0
shaxsiy xizmatlar	371,9	103,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	73,9	109,8
boshqa xizmatlar	186,0	99,0


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (167,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (110,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (109,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi (105,1 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-avgust oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning yanvar-avgust oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 2248,2 mlrd. so'm, transport xizmatlarida 1482,6 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 995,9 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 418,2 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 175,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 18,7 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 156,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar tarkibi
(jami hajmga nisbatan, %)**




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,3 %), transport xizmatlari (21,3 %), moliyaviy xizmatlar (14,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,0 %), shaxsiy xizmatlar (5,4 %), hamda ta'lif sohasidagi xizmatlar (3,2 %) tashkil etadi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan
transport xizmatlari tarkibi, %**



2019 yil yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1482,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1376,5 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,8 % tashkil etadi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish surati, %




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (167,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (110,7 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (109,8 %), hamda sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar (105,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Farg'ona viloyati	6951,7	110,5
Farg'ona sh.	3247,9	117,1
Qo'qon sh.	893,7	108,5
Quvasoy sh.	107,8	104,1
Marg'ilon sh.	708,0	107,2
Oltiariq t.	177,9	102,9
Qo'shtepa t.	101,6	101,8
Bag'dod t.	138,5	103,2
Buvayda t.	138,6	103,3
Beshariq t.	146,3	103,5
Quva t.	158,8	104,6
Uchko'prik t.	191,3	102,7
Rishton t.	126,7	100,0
So'x t.	57,0	100,7
Toshloq t.	134,5	102,0
O'zbekiston t.	157,0	107,3
Farg'ona t.	185,3	106,6
Dang'ara t.	130,0	102,0
Furqat t.	65,2	100,1
Yozyovon t.	85,5	105,1

2019 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari Farg'ona (117,1 %), Qo'qon (108,5 %) shaharlarda hamda O'zbekiston (107,3 %), Farg'ona (106,6 %) va Yozyovon (105,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan %)**



2019 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (46,7 %), Qo'qon (12,8 %) va Marg'ilon (10,2 %), shaharlarda hamda Uchko'prik (2,8 %), Farg'ona tumanlarida (2,7 %) qayd etildi.

Xizmatlari sohasi statistikasi bo'limi

71-230-87-28